

**YANGI O'ZBEKISTONDA - KONSTITUTSIYA ERKIN VA FAROVON
HAYOT GAROVI****Baxtiyorov Burhon Muzaffar o'g'li**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Xalqaro jurnalistik fakulteti,

Xalqaro munosabatlar yo'naliishi 2-bosqich talabasi,

Tel: +998995482323, burxonbaxtiyorov2323@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli konstitutsiyaviy islohotlarning asl maqsadi, bugungi kunda mamlakatimizda inson manfaatlariga hurmat darajasini oshirish masalasi yoritilgan. Xususan, Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda jahon andozalariga hamma talablarga javob beradigan to'g'ri tadbiq etilgan ta'lim tizimi, shu jumladan jamiyatning kuchli davlatga aylanishini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng islohotlarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini belgilash asosiy ahamiyatga ega. Yangi O'zbekistonda so'z erkinligini, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va blogerlarning erkin faoliyati va ijodini ta'minlash uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilgani tom ma'noda davlat va jamiyat hayotidagi "to'rtinchchi hokimiyat"dir.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Yangi O'zbekiston, uyg'onish, islohotlar, qonunchilik tashabbusi.

ANNOTATION: In this article, the real goal of the large-scale constitutional reforms implemented in Uzbekistan, the issue of increasing the level of respect for human interests in our country today, is highlighted. In particular, it is important to establish the constitutional and legal status of large-scale reforms implemented in New Uzbekistan in the following years in order to introduce an education system that fully meets world standards, to ensure the society's transformation into a rich country. comprehensive generation. The creation of the necessary organizational and legal frameworks for the comprehensive development of freedom of speech, mass media, free activity and creativity of journalists and bloggers in new Uzbekistan is literally the "fourth power" in the life the state and society.

Key words: New Uzbekistan, Constitution, revival, reforms, legislative initiative.

АННОТАЦИЯ: В данной статье освещена реальная цель масштабных конституционных реформ, реализуемых в Узбекистане, вопрос повышения уровня уважения интересов человека в нашей стране сегодня. В частности, важно установить конституционно-правовой статус масштабных реформ, реализуемых в Новом Узбекистане в последующие годы в целях внедрения системы образования, полностью соответствующей мировым стандартам, обеспечения превращения общества в богатую страну. комплексное поколение. Создание необходимой организационно-правовой базы для всестороннего развития свободы слова, средств массовой информации, свободной деятельности и творчества журналистов и блогеров в новом Узбекистане является буквально «четвертой властью» в жизни государства и общества.

Ключевые слова: Конституция, Новый Узбекистан, возрождение, реформа, законодательная инициатива.

KIRISH

Konstitutsiya har bir davlatda muhim bo'lgan asosiy huquqiy hujjatdir. Odamlarni fikricha, konstitutsiya davlatning yuzi hisoblanadi, chunki u davlatning ijtimoiy kelib chiqishini konstitutsiyasiga qarab tushunish mumkin. Konstitutsiya asosiy qonun bo'lganligi sababli, unga inson hayotida sodir bo'layotgan voqealar, axborot texnologiyalarining kun sayin o'sib borishi va xalqaro maydondagi global o'zgarishlar ta'sir ko'rsatayotgani shubhasiz. Aytmoqchimizki,

har bir davlatning konstitutsiyasi zamon talablaridan kelib chiqqan holda muayyan o‘zgarishlarga muhtojdir.

Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek qonun ustuvorligini ta’minlash huquqiy madaniyatni yuksaltirish va fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat asosi, huquq tizimi yetukligi ifodasidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Davlatimizning asosiy qonuniga tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, mamlakatimizda 2017-2022-yillarda “inson qadr-qimmatini yuksaltirish”ga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqaro talablarga mos bo‘lishiga qaramay, unga o‘zgartirishlar kiritishni talab qilmay qolmaydi. Shu bois 2022-yil 15-iyulda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qarori qabul qilindi. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi konstitutsiya qonunini loyihasi umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi 2304-sonli O‘zbekiston Respublikasi Majlisida qabul qilindi.

Bugun xalqimiz, xalqaro hamjamiyat “Yangi O‘zbekistonga — yangilangan Konstitutsiya” lozimligini e’tirof etmoqda. Zero, har qanday islohot kuchli konstitutsiyaviy-huquqiy asosga tayansagina, ko‘zlangan ezgu maqsadga va ulug‘vor vazifalarga, samarali natijalarga erishadi. Huquqiy soha rivoji islohotlar shiddatidan ortda qolsa — bu jamiyat va davlat inqiroziga olib kelishi mumkinligini jahon davlatlari tarixidan ham ko‘rishimiz mumkin.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda inson qadri ulug‘lanadigan yangi O‘zbekiston g‘oyasi — butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olib, uni hayotga tatbiq etish umummilliy harakatga aylanib ulgurdi [1]. Eng muhimi, xalqimizning dunyoqarashi, ertangi kunga, islohotlar natijasiga bo‘lgan ishonchi kuchaydi. Fuqarolarimiz yurtimiz va atrofimizdagi voqeа-hodisalarining faol ishtirokchisiga aylanmoqda, ularning yurtimizdagi shiddatli demokratik o‘zgarishlarga daxldorlik hissi ortib, yuksalib bormoqda. Konstitutsiyaviy komissiya faoliyati, aholining turli qatlamlari, fuqarolik jamiyatni institutlari vakillari, turli sohalarning ekspertlari, joylardagi mahallalar aholisi bilan uchrashuvlar bundan yaqqol dalolat bermoqda.

Oxirgi yillardagi o‘zgarishlar Prezidentimizning “Xalq — qonun ijodkori” fikrining hayotiyligi va zamonamiz talablariga qanchalik to‘g‘riligiga haqiqatdan namoyon qildi. Birgina misol: bugunga qadar Konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasiga chiqarilgandan so‘ng 1-avgustga qadar 150 mingdan ortiq taklif kelib tushdi. Qonun loyihasi bo‘yicha umumxalq muhokamasi bosqichi tugallangan bo‘lishiga qaramay, fuqarolar hamda keng jamoatchilik tomonidan Konstitutsiyaning turli moddalarini takomillashtirish va qo‘srimchalar kiritish bo‘yicha shu kungacha 2,5 mingdan ortiq taklif yuborilgan bo‘lib, ayni paytda takliflar kelishi davom etmoqda hamda ular o‘rganilmoqda.

Eslatib o‘tish joizki, Konstitutsiyaviy komissiyaning xulosalari hamda qonunchilik tashabbusi huquqi asosida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir qancha deputatlar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, 2022 yil 21-iyun kuni parlament quyi palatasiga kiritildi [2]. Ularning xulosalari asosida shu yil 24-iyun kuni Konstitutsiyaviy qonun loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilindi. “Qonun loyihalaring umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi qonun hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining tegishli qaroriga asosan, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi joriy yil 25-iyundan 5-iyulgacha umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi “Xalq so‘zi” gazetasi va “Mening konstitutsiyam.uz” elektron platformasida e’lon qilindi. Konstitutsiyaviy islohotlarga xalqimiz va jamoatchilikning katta qiziqish bilan qaragani va fuqarolar tomonidan bildirilgan istaklardan qarab, Oliy Majlis

Qonunchilik palatasining tegishli qarorlariga qarab, Konstitutsiyaviy qonun loyihasini umumxalq muhokamasi muddati ikki marotabaga uzaydi, shu yil 1 avgust kuniga qadar davom ettirildi. Kelib tushgan takliflar mas'ul qo'mitalar a'zolari tomonidan qator mezonlar asosida chuqr tahsil qilindi.

Konstitutsiyaviy qonun strategiyasi mazmuniga ko'ra, inson — jamiyat — davlat, Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat degan tamoyillarni konstitutsiyaviy qoida sifatida o'zgartirishga, xalqparvar kuchli davlat barpo etishga, inson huquqlari va ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga yo'naltirilgan [3].

Shuning uchun jamiyat — islohotlar tashabbuskori degan ezgu g'oya sifatida asosiy qonunimizda fuqarolik jamiyatni institutlarining maqomi hamda o'mi konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlamoqda, oila institutlarini rivojlanishi, ezgu insoniy anana va qadriyatlarimizni kelgusi avlodlarga to'g'ri yetkazish, millatlararo do'stlikni yanada mustahkamlash borasida konstitutsiyaviy asoslar belgilanmoqda.

Shuningdek, yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida maydonga chiqayotgan farzandlarimiz bugungi kunda bosh qomusimizda yoshlarning huquqi, erkinligi va manfaatlarini to'la ta'minlash borasida yoshlar sohasidagi davlat siyosati, yosh avlodni har taraflama qo'llab-quvvatlash masalasi, shuningdek yoshlarni huquq va burchlari konstitutsiya orqali mustahkamlab qo'yilmoqda.

Inson huquqlarini himoyasi bo'yicha qo'llanilayotgan tizimning samarasini yaxshilash maqsadida Konstitutsiyaviy qonun loyihasida bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, keksa avlod vakillari nogironlar huquqlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha masalalari ko'rinoqda, tabiatdagi o'zgarishlarni etirofga olinib, ekologiyaga oid maxsus boblar kiritib o'tilmoqda [4].

Dunyoda kuzatayotgan globallashuv jarayonimiz oqibatlari konstitutsiyaviy islohotlarning samaradorligiga qarab har bir davlatning hayoti va rivojlanish jarayonlarida yaqqol ko'rindi. Shu sababdan ham O'zbekistonda konstitutsiyaviy sohada qilinayotgan islohotlar avvalambor amaldagi qonunchilik asoslarini dunyo bo'ylab sodir bo'layotgan turli xil o'zgarishlarga, dunyo talablariga moslashtirishni talab etib kelmoqda. Negaki, so'nggi o'n, o'n besh yilliklarda qaysi davlatda konstitutsiyaviy o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa – shu mamlakatda qonun ustuvorligi ta'minlangani, jamiyatda jamoat nazorati yaxshilanganligi, ijtimoiy adolat tamoyillari talablarga javob bergen hamda biznes sub'yektlari uchun iqtisodiy erkinlik sharoitlari kafolatlanganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun aholining manfaatlari birinchi o'ringa chiqqanini ko'rish mumkin.

Jamiyatimizda bo'layotgan har xil o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari tubdan tezlashishi shuningdek yurtimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni tezlashuvi davlatimizning konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish kerakligi hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. Masalan 2017-2021 yillar davomida ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va boshqa sohalarda keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish mobaynida fuqoralarni ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda amaldagi qonunchiligidan seziralli bo'shliqlar mavjudligi amaliyotda yaqqol ko'riniq qolmoqda [5].

Mazkur bo'shliqlarni bartaraf etish, qonunchiligidan yaxshilash bilangina Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish mumkinligi zaruratga aylanib qoldi. Ayniqsa, Taraqqiyot strategiyasida amalga oshiralayotga mantiqiy ketma-ketlikda ishlarni birinchi bo'lib inson qadrini ulug'lashga qaratilgani, odamlarni manfaatlariga javob berish shuningdek aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini himoya qilish nuqtayi nazardan hozirgi Konstitutsiyaga tegishli o'zgarish va qo'shichalar kiritish ehtiyojini olib kelmoqda. Nmaga desa, bu joydagisi asosiy muammolardan biri aholining ijtimoiy himoya qilishdir.

Shuning ko‘plab sabablari bor lekin asosiy sabablaridan biri – dunyoda yuz berayotgan global darajadagi muammolar, turi va uni yuzaga chiqarayotgan salbiy oqibatlari ko‘payib borayotgani hisoblanadi. Yer yuzining ko‘plab joylarida sodir bo‘layotgan urushlar, qo‘poruvchilik harakatlari, ekologik muommalar, qashshoqlik, ocharchilik aholi soni ko‘payib borishi, energetika taqchilligi, oziq-ovqat xavfsizligi, turli hil kasalliklarni ortishi kabi muammolarni misol qilib ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘rib o‘tilgan muammolarning ko‘plab aholining ijtimoiy holati og‘irlashishi hamda kambag‘allik ko‘payishiga olib kelmoqda. Hozirgi vaqtida yurtimizda ijtimoiy himoya bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish biringchi holda aholini moddiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilishni ta‘minlaydigan, ikkinchidan ijtimoiy ahvoli, ularning yoshi, salomatligi, tirikchilik anjomlari bilan yetarli darajada ta‘minlaydigan chora-tadbirlar ishlab chiqilishini asosiy zaruriyatga aylantirmoqda,

Rivojlangan ko‘plab demokratik davlatlarda xalqni ijtimoiy himoya qilish majburyatlarini davlat to‘la to‘kis o‘z zimmasiga olgan. Ushbu holat O‘zbekistonda ham ohirgi 5-6 yilda ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda [7]. Ammo, qonundagi Konstitutsiyada aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog‘liq huquqiy normalar to‘la to‘kis ochib berilmagan bu xolatni yanada faollashuviga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Bu modda juda ko‘plab savollarni keltirib chiqaradi. Davlat qanday qatlamdagи aholini qaysi vositalar bilan qaysi vazifalari orqali himoya qilishi to‘la to‘kis ochib berilmagan. Mana shu uchun hozirgi xolat kelib chiqib, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini konstitutsiyada har taraflama himoya qilishda davlatning vazifalarini ko‘rsatib o‘tish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Hozirgi vaqtida yurtimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lganlar 7 toifaga mansub fuqarolarni kiritib o‘tish mumkin:
karantin tufayli ishsiz qolgan fuqarolar;
kam ta‘minlangan;
ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar;
nogironligi bo‘lganlar;
doimiy ishsiz fuqarolar;
yakka-yolg‘iz keksalar;
og‘ir sharoitda yashovchi hududlardan olib kelingan fuqarolar.

O‘zbekistonda yordamga muhtoj aholini davlat tomonidan himoya qilish yuzasidan qilinayotgan chora tadbirlar natijasida yordamga muhtoj aholining qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan bir qancha ijobjiy islohatlar amalga oshirildi. Asosan, ohirgi yillarda mamlakatimizda yordamga muhtoj aholimiz qatlamiga e’tibor qaratish bo‘yicha yangi tizim va mexanizmlar tashkil etildi. Shu tizimga muvofiq, mehribonlik uylaridagi 1,6 mingga yaqin yosh bolalar oilalar tarbiyasiga olindi, 120ga yaqin oilaviy mehribonlik uyi o‘z faoliyatini boshlagan, 650dan ortiq o‘g‘il-qizlar ota-onasi yonida voyaga yetishi uchun sharoitlar yaratildi. O‘tgan yili 757 nafar ko‘ngli yarim bollar uy-joy bilan ta‘minlandi. Davlatimiz hisobidan 4.5 mingga yaqin bolalarda qiyin operatsiyalar o‘tkazildi.

Nogironligi bo‘lgan fuqarolarni davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlash ham kengaydi. Masalan, o‘tgan yili 41 mingga yaqin kishiga sog‘liq uchun kerak bo‘lgan reabilitatsiya va protez-ortopediya moslamalari ham olib berildi. 555 nafar eshitish qobiliyati zaif bo‘lgan bola koxlear implanti bilan ta‘minlandi hamda 4 mingga yaqin ko‘zi ojiz bolaga Brayl alifbosi tarqatildi. Ushbu harakatlар orqali aholining dardiga darmon bo‘lish bilan birga kelajakka bo‘lgan umidini yanada yaxshilash, ular davlatimiz tomonidan hamisha qo‘llab quvatlanib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtidan kelib chiqib, konstitutsiyaning kerakli moddalariga aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamiga yordam berish, ish bilan taminlash, shuningdek imkoniyati cheklangan fuqoralarga davlat tomonidan himoyalash, ularni zamonaviy bilimlarga shuningdek kasb-hunarlargacha bepul o'qitish vazifalari davlat zimmasiga yuklash borasidagi normalarni kiritish albatta kelajakda O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida shakllanishiga chiqishiga yordam beradi degan umiddamiz.

Umumiy qilib aytganda, qonun ustuvorligi qonunga rioxaga qilishni anglatadi. Bu tamoyil har qanday rivojlangan davlat asosida yotadi. Buyuk Amir Temur "Saltanatimning mansabini qonun-qoidalar asosida boshqardim, uning ishiga hech kim aralashib qolmasin", deydi.

Quyidagi asosiy sabab va omillar yurtimizda konstitutsiyaviy islohotlarni boshlash kerakligini ko'rsatib berdi birinchi sabab, davlat-jamiyat-shaxs tamoyilinidan shaxs-jamiyat tamoyiliga o'zgartirish kerakliligi, desak to'g'ri bo'ladi. Davlat bu islohotlarning amalga oshirish uchun asosiy asos bo'ldi; ikkinchi sabab – yurtimizda taraqqiyotining kelgusi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida vujudga kelgan yangi ijtimoiy munosabatlarning konstitutsiyaviy huquqiy maqomini mustahkamlash. Davlatimiz rahbari rahnamoligida 2017-2022-yillarda barcha sohalarni raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunimizni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Asosan, raqamli turizm, raqamli iqtisodiyot, raqamli sud, raqamli davlat xizmatlari kabi tushunchalar bugungi hayotimiz taraqqiyotini asosini tashkil etayotgani haqiqatdir; Uchinchi sabab – Bosh ma'lumotnomamizda xususiy mulkning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha keyingi yillarda joriy qilingan yangi mexanizmlarni kuchaytirish zaruratidir. Ma'lumki, mulk huquqi har bir shaxsning ajralmas huquqlaridan biridir. Masalan, mulkdorlarning huquqini belgilangan tartibda himoya qilish, buning uchun kafolatlar tizimini joriy etish va har qanday holda mulkning saqlanishini ta'minlashi muhim; to'rtinchi sabab – tabiy muhitning musaffoligini va ekologiyani asrabavaylash, kelajak yoshlariga yetkazish borasida Konstitutsiyamizda katta maqsadlarni belgilashni hayotning o'zi ko'rsatib bermoqda; beshinchi sabab – bugungi kun sharoitidan kelib chiqib, yoshlarning manfaatlari va huquqni ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan yaratilgan kafolatlar tizimi muhiti takomillashtirilmoqda.

Binobarin, odamlar orasidagi fikrlarni xilma xilligi, taraqqiyot ko'p tarafdan so'z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining erkin ish yuritishiga bog'liqdir. Maktablarda Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, o'qitishning innovatsion shakllaridan foydalangan holda mutlaqo yangicha tashkil etish davr talabidir. Shu asnoda, yurtimiz rahbari har bir yo'naliш va soha, ta'limning hamma bo'g'inlari uchun huquqiy madaniyatni yaxshilash bo'yicha ilimga asoslangan dasturni amalga oshirishi, buning uchun, birinchi holda Konstitutsiyani jiddiy o'rganishi, bu boradagi ishlarga jiddiy yondashishi zarur.

XULOSA

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlar qatorida konstitutsiyaviy islohotlar ham xalqimiz va davlatimiz rivojida quyidagi ijobjiy jihatlari bilan katta ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, bu islohotlar, gapning tom ma'noda inson qadr-qimmati uchun degan ezu fikirning hayotda o'z tasdig'ini topishi; shuningdek, davlat va jamiyat boshqaruvida xalqning xohish-irodasini to'laqonli aniqlash bo'yicha demokratik islohotlarning davomiyligini ta'minlash, adolatlilikni ta'minlash, zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy normasini belgilash, Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiatidagi nufuzi va mavqeyini yuksaltirish, jonajon vatanimizni obro'sini bundanda yuksaltirishga xizmat qilishi kerak.

Konstitutsiya boshqa normativ hujjatlardan farqli ravishda davlat va jamiyatning asosiy qonunidir. Eng avvalo konstitutsiyaviy qonunlar davlat hokimiyatini amalga oshirish bilan bog'liq eng muhim ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga solishi bilan bog'likdir. Ular quyidagilardan iborat: shaxsning huquqiy holati, davlat tuzilishi va boshqaruv shakli, davlat organlari tizimi va ularni shakllantirish tartibi, ularning o'zaro munosabatlaridir.

Konstitutsiyani qabul qilishning eng demokratik usullaridan biri uning shu maqsadda maxsus saylangan ta'sis majlisini tomonidan qabul qilinishi hisoblanadi.

Shunday qilib, konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, davlat hokimiyatini amalga oshirishni belgilab beradi va davlatning tuzumini, davlat huquqiy tizimi tamoyillari va asoslarini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlanga tantanali marosimida. 07.12.2016.
2. Karimov, S. Inson Qadri: Davlat siyosatining asosi. Toshkent: Jahon Huquq Nashriyoti., 2022 – B.66-74.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi Bosh Assambleyasining 1948 yil 10-dekabrdagi 217A (III)-sonli qarori bilan qabul qilingan va e'lon qilingan. URL: <https://constitution.uz/oz/pages/humanRights>.
4. Sodiqov, M. Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi roli. Toshkent: Milliy matbuot markazi., 2021 – B.49-55.
5. Bobojonov, R. Konstitutsiyaviy islohotlar va inson huquqlari: Yangi O'zbekiston huquqiy yondashuvi. Toshkent: O'zbekiston yuridik nashriyoti., 2023. – B.110-121.
6. Prezident.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlari va Konstitutsiyaga oid huquqiy islohotlar haqida ma'lumotlar. URL: <https://president.uz/uz>.